

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**NABIYEVA GULBAXOR AKBARALIYEVNA**

**TARJIMA ASARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI  
(G‘.G‘ulomning “Shum bola” asarining nemis tilidagi tarjimasi misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Nabiyeva Gulbaxor Akbaraliyevna**

Tarjima asarining lingvokulturologik tadqiqi (G‘.G‘ulomning “Shum bola” asarining nemis tilidagi tarjimasi misolida) ..... 3

**Nabiyeva Gulbakhor Akbaraliyevna**

Linguocultural study of translated works (on the basis of the translation into German version by G.Gulyams “Shum bola”)..... 25

**Набиева Гулбахор Акбаралиевна**

Лингвокультурологическое изучение переводных произведений (на примере немецкого перевода произведения Г. Гулама «Озорник») ..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 41

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**NABIYEVA GULBAXOR AKBARALIYEVNA**

**TARJIMA ASARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI  
(G‘.G‘ulomning “Shum bola” asarining nemis tilidagi tarjimasi misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil2631 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari institutining rasmiy veb-sahifasi (www.adchti.uz)da hamda rasmiy “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nabiyeva Diloru Abdulhamidovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xoshimova Dildora Madaminovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Sodiqov Zohidjon Yakubjonovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy, Tel: (74) 223-42-76, faks: (74) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel.: (99874) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**D.A.Rustamov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
raisi, filologiya.fanlari doktori, professor

**A.Dj.Atoboyev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD)

**M.I.Umarxodjayev**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligining hozirgi taraqqiyot bosqichi inson omili asosida paydo bo'lgan tilshunoslik yo'nalishlari, jumladan, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika kabi sohalarning taraqqiy etishi bilan xarakterlanadi. Zero, turli millatga xos til va madaniyat o'zaro bir biriga bog'liqligida voqelangan stilistik vositalarning kommunikativ-funksional, kontekstual, leksikografik, lingvistik va ekstralingvistik tabiatini kuzatish tilshunoslikning nazariy konsepsiyalarini, ikki millatning madaniy axborotini idrok etish, inson tafakkurining namoyon bo'lishini ilmiy tadqiqqa tortish imkonini yaratib beradi.

Dunyo tilshunosligida madaniyatlararo munosabatlar va ularning lisoniy voqealashuviga bag'ishlangan xususiyatlariga komparativ xarakterdagi izlanishlar keng ko'lamda olib borilgan. Biroq o'zbek milliy a'nanalarini o'z ichida mujassam etgan asarlar, xususan G'ofur G'ulomning "Shum bola" asarining milliy qolip sifatidagi maqomi, uning asosiy konseptosferasi, funktsionalligining gender omillari, dunyo badiiy manzarasini taqdim etish va tafakkur hosilasi sifatida kommunikativ jarayonni voqelantirish xossalarini kognitiv-mental, lingvomadaniy, psixoetnolingvistik aspektlarda tillararo tarjimasidagi nomutanosibliklarni qiyoslab o'rganish kabi ustuvor vazifalar o'z yechimini kutmoqda.

Mamlakatimiz o'zining milliy taraqqiyot strategiyasini belgilab olgan bosqichda lingvokulturologik tadqiqotlar dunyo hamjamiyatiga integrallashuv jarayonida filologiya sohasining antropotsentrik paradigma yo'nalishida taraqqiy qilishini taqozo etdi. "Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'zbek tiliga va o'zbek adabiyotining eng yaxshi asarlarini chet tillariga tarjima qilish chora-tadbirlari dasturi" qiyosiy tilshunoslik, badiiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik kesimida dunyo ichki va tashqi manzarasini lingvokulturologiyadagi universal, umumfalsafiy konseptlarni tahlil qilish borasidagi ilmiy izlanishlar sifati va ko'lamini oshirish kabi ustuvor strategik vazifalarni belgilab berdi. Bu, o'z navbatida, har ikkala millat lisoniy tafakkuri va madaniyatiga xos bo'lgan hissiy obrazlar, borliqni verbal baholash haqidagi ilmiy tasavvurlarning teranlashtirilishiga keng yo'l ochadi. Zero, "...mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/4327>

hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tarjimaga lingvokulturologik yondashuv masalalari doimo olimlar diqqat e'tiborida bo'lgan. Xususan, nemis tilida bunday tadqiqotlar ma'lum darajada amalga oshirilgan.

An'anaviy nuqtayi nazardan antropotsentrik paradigmaga asoslangan holda V.fon Gumboldt, A.A.Potebnya, U.Cheyev, V.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Y.N.Stepanov, I.R.Galperin, Y.V.Dorofeyev, Y.N.Karaulov, Y.N.Remchukova, R.I.Pavilenis, N.I.Jinkin, A.A.Leontyev, J.Lakoff, Y.S.Kubryakova, M.A.Shelyakin, Y.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, V.M.Alpatov, T.M.Dridze, K.F.Sedov, A.A.Vorojbitova, S.G.Vorkachev, A.Nurmonov, M.Mahmudov, M.I.Umarxodjayev, E.A.Begmatov, Sh.Safarov, S.Boymirzaeva, I.Azimova<sup>2</sup> kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimiga va uning elementlari lingvokulturologik aspektda tahlilga tortilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

---

<sup>2</sup> Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 2000. – 400 с.; Потебня А. А. Полное собрание трудов: мысль и язык / А. А. Потебня. – М.: Лабиринт, 1999. – 300. Серебренников Е.С., Кубрякова В.И., Постовалова и др. Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира. Отв. ред. Б.А.Серебренников. – М.: Наука, 1988. – 212 с.; Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании / С. Г. Воркачев // Филологические науки, 2001. – № 1.; Гамалей, И. Г. Оформление центрального сектора простого предложения в севернобаварском говоре Алтая / И. Г. Гамалей // Вопросы диалектологии и истории немецкого языка. – Омск: Изд-во Омск. гос. пед. ин-та, 1983; Дорофеев Ю. В. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики / Ю. В. Дорофеев // Актуальные проблемы современной когнитивной лингвистики: мат. XV Междунар. лингвистической конф. "Язык и мир". Таврический национальный ун-т им. В.И.Вернадского, 2008.; Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 264 с. Ремчукова Е. Н. Креативный потенциал русской грамматики. – М.: Изд-во РУДН, 2005. – 329 с.; Павиленис, Р. И. Проблема смысла: современный логико-философский анализ языка. – М.: Мысль, 1983. – 286 с; Кубрякова Е. С. Человеческий фактор в языке. Язык и порождение речи / Кубрякова Е. С. Шахнарович А. М., Сахарный Л. В. Отв. ред. Кубрякова Е. С. АН СССР, Ин-т языкознания. – М.: Наука, 1991. – 238 с; Шелякин М. А. Язык и человек: к проблеме мотивированности языковой системы: учеб. Пособие. – М.: Флинта, 2005. – 296 с.; Богин Г. И. Филологическая герменевтика / Г. И. Богин. – Калинин: Изд-во КГУ, 1982. – 86 с.; Маслова В. А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.; Алпатов В. М. Об антропоцентричном и системоцентричном подходах к языку // Вопр. языкознания. – М., 1993. – № 3.; Дридзе Т.М. Текстовая деятельность в структуре социальной коммуникации. Проблемы семиосоциопсихологии. – М.: Наука, 1984. – 268 с.; Седов К.Ф. Становление дискурсивного мышления языковой личности: психо- и социолингвистический аспекты. – Саратов, 1999. – 180 с.; Ворожбитова А. А. Теория текста: антропоцентрическое направление. – М.: Высш. шк., 2005. – 365 с; Воркачев С. Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании / С. Г. Воркачев // Филологические науки, 2001. – № 1.; Нурмонов А. Танланган асарлар. – 321 б.; Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиги. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.; Бегматов Э. А. Лексические пласты современного узбекского литературного языка. – Ташкент: Фан, 1985. – 200 с.; Сафаров Ш. С. Лингвистика дискурса. – Челябинск, 2018. – 315 с; Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2010; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2008. – 24 б.

**Tadqiqotning maqsadi** nemis va o‘zbek tillarida tarjimaga lingvokulturologik yondashuvning konseptual-kognitiv va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

lingvokulturologiya va kognitiv lingvistika tamoyillariga asoslangan holda matn tarjimasi bilan bog‘liq vazifalarni belgilash;

“Shum bola” asari va uning tarjimalarini lingvokulturologik aspektida ko‘rib chiqish va ularning izomorf va allomorf belgilarini aniqlash;

asar tarjimasini til va madaniyat nuqtayi nazaridan o‘rganish va “Shum bola” asarida aks etgan voqelikka yondashgan holda uning konseptual asoslarini o‘zbek va nemis tillaridagi “Shum bola” asarining gender asoslarini aniqlash;

**Tadqiqotning obykti** sifatida tarjima asarlarida voqelantirilgan lingvokulturemalar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** asar tarjimasidagi konseptual-kognitiv va milliy-madaniy belgilari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tasniflash, qiyoslash, funksional, badiiy-kontekstual, transformatsional, konseptual, komponent, kognitiv va krossmadaniy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

matn tarjimasi asosida millat tili, axloq me‘yorlari, e‘tiqodi va turmush tarzida o‘rnashgan milliy-xususiy, umuminsoniy, universal belgilarni tashuvchi va o‘xshash madaniy konseptlarni verballashtiruvchi madaniy qolip ekanligi isbotlangan;

matn tarjimasining asosiy mazmunini ifodalashda so‘z turkumlarining mavqega ega ekanligi, turli birikuvlarda fikrni to‘ldirish va aniqlash, emosional-baholovchi munosabatni ifoda etish, stilistik effekt bag‘ishlash kabi qo‘shimcha bo‘yoqdorlikni ta‘minlashda ularning funksional xususiyatlari ochib berilgan;

borliqni anglash va uni in‘ikos etishda hamda borliq elementlarining konkretlashtirishda milliy – mental madaniy va diniy mansublik kabi belgilarning muhurligi Shum bola asari va uning tarjimalari tahlili misolida yana bir dalillangan;

qiyoslanayotgan tillar lingvomadaniyatida tajovuzkorlik, hukmdorlik, ustunlik, mustaqillik, qat‘iyat, maqsadlilik kabi maskulin va emosionallik, g‘amxo‘rlik, do‘stlik, xushmuomalalik, ko‘ngilchanlik kabi feminin parametrlar o‘zaro dialektik bog‘langan kategoriyalar ekanligi, gender belgilanganlik kasb etishi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

antropotsentrik tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari – kognitiv lingvistika va madaniy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan va buning natijasida kognitiv tuzilma va madaniy model sifatida ko‘rib chiqish imkonini bergan;

asar tarjimasida pragmatik, kognitiv va lingvomadaniy strukturaviy-semantik, stilistik, jihatlarining tahlil qilishning kompleks metodologiyasi ishlab chiqilgan;

asar tarjimasining kognitiv tuzilma va madaniy model sifatidagi maqomini va ushbu stilistik vositaning nemis tilini o‘qitish amaliyotida stilistika, kognitiv tilshunoslik va madaniy tilshunoslik bo‘yicha nazariy kurslarda ham foydalanish imkoniyati asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, tadqiqotda zamonaviy stilistika va tipologiya yutuqlaridan kelib chiqqan holda chiqarilgan xulosalarning tasniflash, qiyoslash, funksional, badiiy kontekstual, konseptual, krossmadaniy tahlil usullari orqali dalillanganligi, shuningdek, nazariy fikr va natijalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan xulosalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar nemis va o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi kesimida lingvokulturologik, kognitiv va talqiniga zamonaviy yondashuvni shakllantirishi, tarjimaning lingvokulturologik yondashuvi kognitiv lingvistika va kognitiv stilistikaning yangi yo'nalishini rivojlantirishga hissa qo'shishi, shuningdek, stilistik vositalarning milliy-madaniy, konseptual xususiyatlarini o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Olingan ilmiy natijalardan oliy ta'lim tizimida kognitiv tilshunoslik, kognitiv stilistika, lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, leksikologiya nazariyasi fanlaridan maxsus kurs o'tishda, shuningdek, ushbu fanlar bo'yicha darslik, qo'llanma va uslubiy tavsiyalar yaratishda foydalanish mumkinligi, shuningdek, tadqiqotning xulosa va materiallaridan nemis va o'zbek tillarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalar yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarjima asarining linguokulturologik tadqiqi ("Shum bola tarjimalari misolida") bo'yicha olingan natijalar asosida:

qiyoslanayotgan tillar lingomadaniyatida tajovuzkorlik, hukmdorlik, ustunlik, mustaqillik, qadriyat, maqsadlilik kabi maskulin va emotsionallik, g'amxo'rlik, do'stlik, xushmuomalalik, ko'ngilchanlik kabi feminin parametrlar o'zaro dialektik bo'lgan kategoriyalar ekanligi, gender belgilanganlik kasb etishi borasida uiversitetlarning filologik fakultetlarida "Leksikologiya", "Stilistika" kabi fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy majmualar tayyorlashda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida OT-FI-030-raqamli fundamental loyiha, 01-01/4001-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida talabalar uchun "Leksikologiya", "Stilistika" kabi fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy majmualarning mazmuni boyitilgan;

matn tarjimasida millat tili, axloq me'yorlari, e'tiqodi va turmush tarzida o'rnashgan milliy-xususiy, umuminsoniy, universal belgilarni tashuvchi va o'xshash madaniy konseptlarni verballashtiruvchi madaniy qolip ekanligining "Linguokulturologiya" tushunchasining tahlili, "Sum bola" asarining o'zbek tilidagi asliy matnlarni nemis tiliga o'girilgan matnlarning linguokulturologik leksemalar va ularning tarjimada aks ettishi, o'girilgan tarjimadagi kamchiliklarni bartaraf etishning qiyosiy tahlili hamda uning o'xshash va farqli xususiyatlari borasidagi ilmiy-nazariy xulosalardan "Umumta'lim muassasalari bitiruvchilarining ona tili(o'zbek tili) fani bo'yicha malakasini baholash hamda

14 ta fandan test tizimini ishlab chiqish loyihasi” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot institutining 01109-1359-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida talabalar uchun o‘zbek va nemis tillari bo‘yicha tuzilgan dastur va o‘quv qo‘llanmalarning mazmuni boyitilgan;

tarjima asarlarning linguokulturologik tadqiqiga (“Shum bola tarjimalari misolida”) doir taklif va ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali ko‘rsatuvlar ssenariylarini yozishda, dasturlarni ikki tilda yoritishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 08-martdagi 04-36-551-son ma’lumotnomasi). Natijada yangiliklarni va sohalarga oid targ‘ibot va tashviqot ishlarni o‘zbek va nemis tillarida samarali olib borishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, ulardan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 163 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “*Tarjima asarlarining linguokulturologik aspekti*” deb nomlanib, unda tarjimashunoslik va lingvokulturologiyaning o‘rganilishiga doir va tarjima asarlarida lingvokulturologik mexanizmlarning ifodalanishiga oid ma’lumotlar ochiqqlangan.

N.Teliyaga<sup>3</sup> ko‘ra, lingvokulturologiya avvalo jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo‘llaniladigan ifodalarning sinxron xaraktdagi xalq mentaliteti bilan alofasini tadqiq qiladi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N.Teliya bu haqida shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi

---

<sup>3</sup>Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.

madaniyat fenomeni bo'lgan inson to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos yutuqlar majmuasidir”.

Bobning ikkinchi fasli *“Tarjima asarlarida lingvokulturologik mexanizmlarning ifodalanishi”* deb atalgan. Respublikamizda barcha fanlar qatori tarjima san'atiga bo'lgan qiziqish ham kundan-kunga oshib bormoqda. Xorijiy tillardan to'g'ridan-to'g'ri o'g'irish asta-sekin rivojlanish davriga o'tmoqda. Tarjima jarayoni insonning yangi bilish doirasini zabt etib, u olimlarimizni faqatgina badiiy tarjima bilan shug'ullanib qolmasdan, balki hozirgi zamon tilshunosligida urfga aylanib kelayotgan yo'nalishlardan biri asarlarning lingvokulturologik tadqiqi, ya'ni ikki bir biriga turdosh bo'lmagan tillarning bir biriga qiyoslab o'rganish va o'rganilayotgan mamalakatning tilini, urf odatini o'rganish albatta tarjima orqali amalga oshirilishi hech kimga sir emas.

Bizning tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biri o'zbek yozuvchisi G'ofur G'ulomning *“Shum bola”* asarini tahlilga tortib, undagi o'zbek xalqi madaniyati, urf odatlari, ularning hozirgi paytda ham saqlanib qolgan udumlari, qolaversa yo'qolib ketgan udumlarini ham o'rganib, asarning nemis tilidagi tarjimasini, ya'ni 2014 yili Germaniyada Oybek Ostons tomonidan tarjima qilingan, *“Der Schelm”* nomli asarini ikki til miqyosida lingvokulturologik tadqiqni tarjima orqali o'tkazishdan iborat.

XX asrning 40-50 yillaridan Nabi Alimuhamedov, Asqad Muxtor, Mirzakalon Ismoilov singari adib-tarjimonlar tarjima prinsiplari xususida ancha puxta ilmiy-nazariy fikrlarni ilgari surdilar. Shu yillarda N. Vladimirovaning *“Rus tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimaning ba'zi masalalari”*, J. Sharipovning *“Ruschadan o'zbekchaga poetik tarjimaning ba'zi problemalari”*, Mas'ud Rasuliyning *“V. Mayakovskiy asarlari o'zbek tilida”* singari tadqiqotlari yuzaga chiqdi. Shuningdek, Anvar Hojiahmedov, Yusup Po'latov, A. Abdugafurov, Sabixa Salomova, E.Aznaurova va boshqalarning tadqiqotlarida tarjima tarixi va tarjima tanqidiga ancha keng o'rin ajratildi. XX asrning 60-yillaridan tarjimashunoslik yangi bosqichga ko'tarildi. Shu davrda J.Sharipovning *“O'zbekistonda tarjima tarixidan”*<sup>4</sup> (1965) deb nomlangan faktik materiallarga juda boy asari bosildi. Shu muallifning *“Badiiy tarjimalar va moxir tarjimonlar”* (1972) kitobi tarjima tarixi va badiiy mahorat sirlarini yoritishda yana bir qadam bo'ldi. Ayniqsa, shu yillarda G'.Salomovning *“Til va tarjima”* (1966), *“Tarjima nazariyasi asoslari”* (1983) kitoblarining yaratilishi tarjimashunoslik rivojida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Shu yillarda Gulnora Gafurova, Lola Abdullaeva, Quadrat Musaev, S.Salomova, ZuhraUmarbekova, M.Tursunxo'jaeva, D. G'ulomova, H. Avlonova singari talantli tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida Gorkiy, M. Sholoxov, A. Tolstoy singari ulkan adiblarning o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlari xamda o'zbek adabiyoti namunalarning rus tiliga qilingan tarjimalari sinchkovlik bilan ilmiy ishonarli tahlil etildi<sup>5</sup>.

Ishning ikkinchi bobi *“G'ofur G'ulomning “Shum bola” asari tarjimasida kognitiv-semantik va lingvokulturologik xususiyatlarning aks ettishi”* deb nomlanib, ushbu bobda *“Shum bola” asari tarjimalarining kontseptual tahlili* va

<sup>4</sup>Абдурахмонова Н. Бадий таржима программаси // “Филология масалалари”, 2000.

<sup>5</sup>Валикулов Ю. Таржима ижод кўприги // Маърифат газетаси. 14.01.2004.

„Asar tarjimalaridagi tafovutlar sabablari va ularni bartaraf etish choralari” kabi masalalar keng yoritib berilgan.

Tilshunoslikda “konsept” atamasi ayni paytda eski va yangi tushunchadir. Yaqin-yaqingacha u “tushuncha” atamasiga teng deb qabul qilingan. So‘nggi yillarda bu atamalarning noaniq ikkilamchi fonida sezilarli darajada o‘zgarish kuzatildi.

A.P.Babushkin konseptlarni biroz boshqacha talqin qilishni taklif qiladi. U konsepsiyani kognitiv semantika hamda lingvistik yo‘nalish doirasida ko‘rib chiqadi. A.P.Babushkinning yondashuvi lingvistik xususiyatga ega bo‘lib, uning talqinida tushunchalar berilgan til semalarining mazmuniga mos keladi. Aynan so‘zlarning ma'nolarida voqelikni idrok etish natijasi mavjud va shuning uchun tarkibiy tahlil prosedurasidan foydalanib, ma'lum bir so‘zning konseptual parametrlarini o‘rganish mumkin, ya'ni so‘z ma'nosida uning mantiqiy va ob'ektiv mazmunini, voqelikdagi vaziyatni aks ettiruvchi tasvirni aniqlash mumkin<sup>6</sup>.

“Shum bola” asari o‘zbek yozuvchisi va shoiri G‘ofur qalamiga mansub qissadir. Muallif asarni 1936 yilda yozgan. Qissa bir nechta nashr qilingan. Qissada ijodkorning bolaligi, 20 asr boshidagi Toshkent xayoti tasvirlangan Qissani F.Shayxutdinova<sup>7</sup> (1968) hamda A. Naumov (1970) rus tilida, V.Grimich<sup>8</sup> (1991) Ukrain tiliga tarjima qilingan.

Xalqlar madaniyati, turmush tarzi, an'alarini aks ettiruvchi millatning badiiy adabiyotlarini tarjima qilishning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari, milliy-madaniy leksik birliklarning ekvivalentligi va ularni turli transformasiyalardan foydalanib tarjima qilish ustida etarlicha tadqiqot olib borilmagan. Shundan kelib chiqib, biz ham G‘ofur G‘ulomning “Shum bola” asarini nemis tiliga tarjima qilingan “Der Schelm” nomli asari tarjimalariga e'tiborni qaratmoqchimiz.

*O‘zbek tilida: Qaymoq bozorining burilishida, Mahkamani boshida Ilxom samovarchining kattakon choyxonasi bo‘lib, unda grammafona chalindi.*

*Nemis tilidagi tarjimasi: In Ilhoms grossem Teehaus das genau auf der Kreuzung zwischen den Ständen mit Milchproduktion und der Gemeindeverwaltung stand spielte Grammophon<sup>9</sup>.*

Hammaga ma'lumki, arab tili O‘rta Osiyoda, jumladan hozirgi O‘zbekiston territoriyasida ham mahkama tili, ham adabiy til bo‘lib qoldi. Mahalliy olimlar, shoirlar va adiblar o‘z asarlarini shu tilda yozdilar. Mazkur kitoblar, rasmiy yozishmalar, arab xalqi bilan bo‘lgan jonli aloqa-munosabatlar va tarjima asarlari orqali arab tilining ko‘p so‘zlari o‘zbek tili lug‘at sostaviga kirib keldi. Shunday so‘zlar jumlasiga “mahkama” so‘zi xam kiradi.

*Mahkama* so‘zi nemis tiliga *Gemeindeverwaltung* so‘ziga tarjima qilingan. Keltirilgan tarjima haqiqatdan ham mahkama so‘ziga to‘g‘ri kelib, tarjimon so‘zni har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxada mazmun va shakl jihatdan muvofiq

<sup>6</sup>Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во ВГУ, 1996. – С. 30-31.

<sup>7</sup>„Shum bola“ (ruscha). Rossiya davlat kutubxonasi. 24-sentabr 2016-yil.

<sup>8</sup> O‘sha manbadan. – B. 4.

<sup>9</sup> Gulom G. Der Schelm. Oybek Ostonov tarjimasi. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – S. 6. (Keyingi o‘rinlarda mazkur asarga havolani matn ichida ko‘rsatamiz)

adekvat tarjimadan to'g'ri foydalana olgan, biroq *samovarchi* so'zini tarjimasi nemis tili tarjimasida berilmay ketgan, bu erda tarjimon erkin tarjima qilish usulidan foydalangan, tarjimon bunda asl nusxaning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'zgartiruvchi, lekin o'girilayotgan matnga ta'sir qilmaydigan usuldan foydalanganligi uchun, tarjimada samovarchi so'zisiz ham tushunarli bo'lib turibdi, biroq tadqiqotimiz davomida Nemis tilining onlayn izohli lug'atidan qidirganimizda, *Samowar*<sup>10</sup> so'zi mavjud bo'lib, u 19 asrda rus tilidagi samovar so'zidan, ya'ni o'zi *qaynatuvchi degan* so'zdan o'zlashgan, degan ta'rif berilganligini guvohi bo'ldik, biroq *samovarchi* so'ziga aynan tarjima topilmadi, biz *choy qaynatuvchi* ma'nosida *Teekoher* so'zini tarjimon qo'llab ketganda tarjima yana ham go'zalroq chiqar edi deb o'ylaymiz. *Choyxona* so'zi esa so'zma-so'z tarjima qilinib, *Teehaus* ga o'girilganki, bu tarixiy-milliy koloritga to'g'ri kelmaydi, yana qo'shimcha qilib ta'kidlab o'tish kerakki, bu erda milliy o'ziga xoslik tushunchasidan tarjimon biroz uzoqlashgandek, chunki milliy o'ziga xoslik deganda, adabiy asarda tasvirlangan xalq xayotining moddiy sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tarixi va dini va shu kabi atamlar kiradi, bizningcha tarjimon o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun shundayligicha o'girib kifoyalangan. *Milchproduktion*- so'zi esa sut mahsulotlari tarjimasiga to'g'ri kelgan, biroq qaymoq so'zining nemis tilida ham aslini ifodalovchi ma'nosi ham mavjud bo'lib, *Sahne* bilan o'giriladi.

*O'zbek tilida: Uzun rasta Juhud rasta attorlik va boshqa rastalarning boyvachchalari savdodan bo'sh vaqtlarida bu choyxonaga yig'ilib mexmonxonalaridek o'rtada katta barkashlardan qand-qurs, pista-badom, murabbo va nisholada, obi-non, shirmoy-nonlar bilan shamaloq bezatilgan dasturxon atrofida chaqchaqlashib o'tirishardi. Bazi boyvachchalarning dasturxonida qorniga qaldirgoch surati solingan ustiga poxoldan tur to'kilgan konyaklar hamma xam ko'rinar edi.*

*Nemis tilidagi tarjimasi: Die reichen Ladenbesitzer der langen Marktreihen, die Inhaber der jüdischen Geschäfte, der Galanterieläden und anderer Betriebe versammelten sich dort in ihrer Freizeit um einen Dastarkhan. Der war wie in den Gästehäusern gedeckt; Die grossen Tablett waren üppigt mit verschiedenenen Süssigkeiten beladen; Mandeln, Pistazien, Marmeladen, Nischollo und unterschiedlichen Sorrtten von Fladenbrotten, und manchmal konnte man dazwischen im Strohnnetz verhüllte Weinbrandflaschen mit einem Schwalbenzeichen darauf sehen*<sup>11</sup>

Shuni ta'kidlash muhimki, o'zbek tilida berilgan asliy matn aniq va rovon tushunarli tilda yozilgan. Unda o'zbek halqi madaniyatiga xos bo'lgan *rasta, attorlik, boyvachcha, chaqchaqlash, shamaloq, qaldirgoch, poxoldan tur* leksemalar yorqin tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. Keltirilgan tasvirlardan o'sha davr hayotida choyxonalarning ahamiyatini va o'ziga xos muhiti juda yaxshi aks ettirilgan deyish mumkin.

Matnning nemis tilidagi tarjimasiga kelsak, asl matndagi muhim tushunchalar saqlanib qolingani, lekin o'zbek tilidagi matnning ba'zi nozik jihatlarini to'liq yetkaza olmaganligini ko'rishimiz mumkin.

<sup>10</sup> Немис тилининг изоҳли онлайн луғати.

<sup>11</sup> Ko'rsatilgan asar. – B. 6.

Asliy matnda berilgan *rasta* leksemasi nemis tilida *Marktreihen* leksemasi orqali tarjima qilingan. *Marktreihen* leksemasi *savdo qatorlari* degan ma'noni anglatadi, biroq *rasta* tushunchasi o'zbek halqi madaniyatida ancha kengroq ma'noga ega bo'lib, u ko'pincha bir-biriga yaqin joylashgan turli xil do'konlar yoki savdo joylarini anglatadi. *Attorlik* leksemasi esa nemis tilida *Galanterieläden* leksemasi orqali tarjima qilingan, biroq *Galanterieläden* leksemasi *kiyim-kechak do'konlari* degan ma'noni anglatadi, odatda *attorlik* tushunchasi o'zbek halqi madaniyatida *dorivor o'simliklar va xushbo'y moddalar sotiladigan do'konlar* ga nisbatan qo'llanadi.

Yana asliy matnda berilgan *chaqchaqlash* leksemasi nemis tilida *versammeln sich* (yig'ilishdi) bilan tarjima qilingan. Shuni aytish muhimki, *chaqchaqlash* leksemasi o'zbek halqi madaniyatida *gaplashish, suhbatlashish, qiziqarli holatlarni muhokama qilish* ma'nolarini anglatganligi bois, *yig'ilishdi* leksemasi asliy matndagi ma'noni to'liq yetkaza olmagan deyish mumkin. Asliy matndagi *shamaloq* leksemasiga kelsak, nemis tilidagi *Strohnetz* (somon to'r) bilan tarjima qilingan. *Shamaloq* o'zbek halqi madaniyatida *nozik, to'qilgan mato* ma'nosini anglatadi, nemis tiliga o'girilgan *Sorrtten* leksemasi o'zbek tilida berilgan *shamaloqning* to'liq ma'nosini yetkaza olmaganligini matn ma'nosidan tushunishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, o'zbek tilida berilgan matnning nozik tomonlarini to'liq yetkazish uchun nemis tiliga qilingan tarjimada ba'zi o'zgarishlarni ham kiritish mumkin deb o'ylaymiz.

Bobning ikkinchi fasli "*Shum bola*" asari tarjimalaridagi tafovutlarni sabablari va ularni bartaraf etish choralariga yechim topilgan. Badiiy tarjima o'z murakkabligi va qiyinlik darajasiga ko'ra badiiy ijod bilan deyarli bir mavqeda turadi desa ham bo'ladi. Sababi muallifning iste'dodi va mahorati mevasi bo'lgan asarni umuman boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qilib qayta yaratish kerak bo'ladi.

Endi esa quyidagi matnga e'tiborni qaratsak:

Nemis tiliga o'girilgan matn: *Manchmal hänselten wir sie erbarmungslos und warfen der Steine in Richtung des eines Irren, oder wir baten den andern, für uns etwas zu singen oder zu tanzen, dritten kriegten wir unsere schlage ab.*

O'zbek tilida berilgan asliy matn: Ba'zi kunlar bir jinniga tosh otib, ikkinchi jinni o'yinga solib, uchinchi jinnidan kaltak yeb, kech kirib qolganini ham sezmas edi.

O'zbek tilidan nemis tilidagi o'girilgan matnlar tarjimasida tarjimon asosan so'zma-so'z tarjima usulidan foydalangan holda amalga oshirgan. Chunki, bu usulda asl matndagi har bir so'z ma'no jihatdan eng yaqin nemis tilidagi so'z bilan almashtiriladi. Biroq, bu usul odatda matnning til xususiyatlarini, grammatik tuzilishini va madaniy kontekstini hisobga olmay bajarilishi mumkin. Natijada, tarjima tabiiy va o'qishga qulay bo'lmagan holda o'girilib qolishi mumkin.

Asliy matnda berilgan misolda, *jinniga tosh otib* iborasi nemis tiliga *warfen der Steine in Richtung des eines Irren* deb tarjima qilingan. Matn so'zma-so'z tarjima orqali amalga oshirilgan bo'lib, *jinn* so'zining o'zbek madaniyatidagi o'ziga

xos ma'nosini yetkaza olmagan deyish mumkin. Shuningdek, *o'yinga solib* iborasi ham *baten den andern, für uns etwas zu singen oder zu tanzen* deb tarjima qilingan. Bu ham so'zma-so'z tarjimasi orqali amalga oshirilgan bo'lib, *o'yinga solib* iborasining o'zbek tilidagi ma'nosini to'liq aks ettira olmagan deyish mumkin. Umuman olganda, berilgan tarjimada madaniy kontekst, til xususiyatlari va grammatik tuzilishga e'tibor berilmagan deyish mumkin.

Tarjima matnida berilgan *Manchmal hänselten wir sie erbarmungslos und warfen der Steine in Richtung des eines Irren...* jumlasini jinni bilan o'yin o'ynashni va tosh otishi tarjimon tomonidan to'g'ri tarjima qilingan.

*...oder wir baten den andern, für uns etwas zu singen oder zu tanzen...* gapning ikkinchi qismida jinni bilan *o'yin o'ynashni* ham to'g'ri tarjima qilingan deyish mumkin

Nemis tiliga o'girilgan matnning...*dritten kriegten wir unsere schlage ab* qismida uchinchi jinni tomonidan jazolanishini tarjimon to'g'ri tarjima qiladi.

Asliy matnda keltirilgan...*kech kirib qolganini ham sezmas edi* jumlasini esa tarjimada aks etmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Demak, *Kech kirib qolganini ham sezmas edi* degan jumlasini tarjima matnida berilmagan bo'lib, biroq bu jumla matnning ma'nosini to'liq anglash uchun muhim hisoblanadigan jumla edi. Shu sababli ham tarjimada matnning uslubi o'zgarib ketganligini ko'rishimiz mumkin. Asliy matn o'ziga xos uslubda yozilgan bo'lsada, tarjimada esa ko'proq rasmiy uslub qo'llanilib qolgan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, o'zbek tilida berilgan asliy matnning ma'nosini to'g'ri yetkazish uchun *kech kirib qolganini ham sezmas edi* degan jumlaning qo'shish kerak deb o'ylaymiz.

Masalan: "*Manchmal hänselten wir sie erbarmungslos und warfen der Steine in Richtung des eines Irren, oder wir baten den andern, für uns etwas zu singen oder zu tanzen, dritten kriegten wir unsere schlage ab, und wir bemerkten nicht, dass die Zeit schon spät war*".

Biz taklif qilayotgan tarjimada *kech kirib qolganini ham sezmas edi* degan jumla qo'shilgan bo'lib, matnning uslubi asliy matnga yaqinlashtirilgan.

O'zbek tilida berilgan asliy matnda *jinn* tushunchasiga urg'u berilgan. O'zbek xalq ertaklari va afsonalarida jinnlar ko'pincha bezovta qiluvchi, kulgili yoki xavfli mavjudotlar sifatida tasvirlanadi. Asliy matnda so'zlarni tanlashda she'riylik va tasvirlilik kuzatiladi.

Asliy matnda berilgan *Jinn* so'zini nemis tiliga *Irren* deb tarjima qilish bizningcha to'g'ri emas, chunki *Irren* so'zi nemis tilida *ahmoq* yoki *jinni* degan ma'noni anglatadi, lekin o'zbek tilidagi *jinn* so'zining ma'nosi ko'proq xalq ertaklaridan chiqqan mavjudotni anglatadi.

Asliy matnda berilgan *O'yinga solib* va *kaltak yeb* iboralari nemis tiliga to'g'ri tarjima qilinmagan deyish mumkin, chunki *jinn bilan o'ynab, uni bezovta qilishni* bildiradi. Bundan ko'rinadiki, o'zbek va nemis madaniyatlarida ba'zi tushunchalar bir-biridan farq qiladi. Masalan, *jinn* tushunchasi o'zbek madaniyatida nemis madaniyatiga qaraganda boshqacha ma'no anglatadi. Ularni ikki til orasidagi tarjimadagi tafovutlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ham ko'rsatib ketsak: tarjimon ikkala madaniyat tushunchalarini yaxshi bilishi kerak. Tarjimon asliy matnning madaniy kontekstini tushuntirish uchun izohlar berishi mumkin.

O‘zbek tilida berilgan asliy matnni nemis tiliga to‘g‘ri tarjima qilish uchun tarjimon madaniy xususiyatlar, til xususiyatlari, so‘zlarning ma‘nolari va madaniy tushunchalar farqini hisobga olishi kerak. Tarjimada *jinn* so‘zini to‘g‘ri tarjima qilish, *kech kirib qolganini ham sezmas edi* degan jumlaning qo‘shish va asliy matnning she‘riy uslubini saqlab qolish muhim deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan nemis tilidagi tarjimada o‘zbek tilidagi asliy matnning o‘g‘irilishida, hänselten-mashara qildi, degan ma‘noda ishlatilgan, e‘tibor berib qarasa, asl matnda bunday jumlaning ishlatilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Bizningcha, tarjimon asarni kitobxoniga tushunarliroq qilib yetkazish istagida, bu jumladan foydalangandir va bu tarjimani jozibador ham qilib ko‘rsatgan deb o‘ylaymiz.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Milliy-madaniy ko‘rsatkichlarning tarjima asarlarida voqelanishi”** deb nomlanib, bu bobda “Milliy urf-odatlarining tarjimada aks etishi”, “Nemis va o‘zbek milliy madaniy belgilar mushtarakligi va farqlanishi hamda ularning tarjimada voqelanishi” kabi masalalarga alohida ahamiyat berilgan.

Asarning eng kitobxonning yaxshi ko‘rib o‘qiydigan joyi borki, u Sariboyning “innakeyin” sahnasidir. Bizga ham “innakeyin” sahnasini tarjimalarda berilishini tadqiqdan o‘tkazish, qiziqarli albatta.

“Innankeyin“ bu shevada aytilishi, aslida esa “undan keyin yoki shundan keyin“ demakdir. Demak, tarjima qilishdan avval o‘zbek tilida yaxshilab tushunib olish tadqiqotchidan talab etiladi. Hozirgi kunda tarjimaning bevosita turi ham ancha rivojlandi. Bunga dalil sifatida “Shum bola“ romanini aytish mumkin. “Shum bola“ning 130 ta tarjima qilinishi o‘zbek adabiyotining jahon adabiyotidagi o‘rnini yana bir javohir asar bilan bezaganligini bildiradi. O‘zbek kitobxonlari “Shum bola“ asarini o‘qib qanday zavqlangan bo‘lsalar, nemiszabon kitobxonlar ham shunday his-tuyg‘uni asarni mutoala qilishganda zavqlanishini ko‘rish, tarjimonning o‘z maqsadiga etgan yutuqlaridan biri ekanligini bildiradi.

Endi asardagi matnga e‘tiborni qaratsak: *Erta bilan bir otga minib boyning oldiga qarab yo‘l soldim. Yo‘l-yo‘lakay ming xil xayollarga botib o‘ylayman. Qanday qilib “innakeyin”ga javob topish kerak?*

*Yetib borib otdan tushdim. Boy shiyponda kalla go‘shiti bilan nonushta qilib o‘tirgan ekan. Salom berib, sekingina poygakdan cho‘kka tushib o‘tirdim.*

- Xo‘sh?!

- shunday o‘zim sizni sog‘inib, bir ko‘rib kelay, deb kelgan edim.

-Yaxshi, yaxshi, barakalla! Juda ham quruq kelmagandirsan, biror ishing bordir. Xo‘sh, nimaga kelding.

*Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo‘ygan shartim esimga tushib qoldi.*

“Shart qilgan yolg‘onni endi gapirmasang, qachon gapirasan?”, dedim-da gap boshladim.

*In diesem Augenblick fiel mir meine damalige Bemerkung über das Lügen ein, die mir vielleicht aus der Patsche helfen könnte. Da mich vor seiner bösen Frage nur die Lüge retten konnte, griff ich zu einer List und begann zu reden* (Oybek Ostonov tarjimasi).

*O‘sha lahzada meni boyning qamchisidan qutqarib qolishi mumkin bo‘lgan, eski yolg‘onlarim esimga tushdi. Uning g‘azabkor savollaridan faqat yolg‘on*

*qutqara olishligi uchun qo'limga ro'yxat olib gapirishni boshladim( avtor tarjimasini).*

*-Anavi, haligi, dandon sopli pichog'ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini kelgani berdim.*

*“Shunday qilib, fil suyagidan qilingan pichog'ingiz sinib qoldi”* gapini tarjimon *“Also ....Ihr Messer mit dem Elfenbegriff ist abgebrochen”* (Oybek Ostonov tarjimasini) tarzida o'g'irgan.

Yuqorida erilgan asliy matn va uning nemis tiliga tarjimasini so'zma-so'z tarjima yoki badiiy tarjima usulida amalga oshirilgan. Ushbu turdagi tarjimada asl matnning so'zma-so'z ma'nosiga e'tibor qaratiladi va imkon qadar asl so'zlarning tartibini saqlashga harakat qilinadi.

Asliy matndagi *Innakeyin* leksemasi o'zbek tilida keng tarqalgan bo'lib, u odatda *nima uchun* yoki *nimaga* ma'nosiga ishora qilib, asarda ushbu so'zning o'ziga xos ma'nosi va hissiyoti bor ekanligi ta'kidlanadi. Odatda, *Innakeyin* so'zi ko'pincha ayblanayotgan, qoralayotgan shaxsga qaratilib aytilsada, nemis tilida bunga tenglashtiriladigan so'z yo'qligi bu leksemaning milliy-madaniy leksemalar tarkibiga kirganligidan bo'lishi mumkindir.

Asliy matnda berilgan *boy* leksemasi o'zbek milliy-madaniyatida *boylikni*, ya'ni kuchni ifodalaydi. Nemis tilida esa ushbu leksemaga ma'nodosh *reich* yoki *wohlhabend* kabi so'zlar bo'lsa-da, ular o'zbek tilidagi *boy* so'zining madaniy konnotatsiyasini to'liq ifodalay olmaydi. Yana asliy matndagi *sherik* leksemasi ham o'ziga xos madaniy konnotatsiyaga ega bo'lib, odatda ushbu so'z ko'pincha *sheriklikni*, *do'stlikni* va *birgalikdagi harakatni* ifodalaydi. Nemis tiliga o'g'irilgan *Partner* leksemasi esa ushbu ma'noni ifodalasada, u o'zbek tilidagi *sherik* so'zining madaniy konnotatsiyasini to'liq ifodalay olmagani deb hisoblaymiz.

Nemis tiliga o'g'irilgan *In diesem Augenblick fiel mir meine damalige Bemerkung über das Lügen ein, die mir vielleicht aus der Patsche helfen könnte. Da mich vor seiner bösen Frage nur die Lüge retten konnte, griff ich zu einer List und begann zu reden* degan qismda *Augenblick* so'zi o'zbek tilidagi *lahzada* so'ziga mutlaqo mos kelmagan deyish mumkin. Shu sababli ham matndagi *Augenblick* leksemasining o'rniga *in diesem Moment* yoki *sofort* so'zlarini ishlatish to'g'riroq bo'lardi deb o'ylaymiz.

Tahlillardan kelib chiqib shuni aytish kerakki, so'zma-so'z tarjima, ayniqsa, madaniy jihatdan boy va til xususiyatlari o'zgacha bo'lgan tillarni tarjima qilishda ko'pincha ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmaydi. Bu kabi matnlarning linguokulturologik tahlil qilishda, tarjimani asl matn bilan solishtirish va ular o'rtasidagi farqlarni aniqlash muhim bo'lib, ushbu farqlar madaniy tafovutlarni, til xususiyatlarini va tarjimadagi xatoliklarni ko'rsatib beradi.

*Ana shu so'zdan keyin, menga innaykeyin savoli yog'ila boshladi.*

*Prompt begann er mich mit seiner üblichen Frage zu attackieren* (Oybek Ostonov tarjimasini);

*Üblichen Frage*<sup>12</sup> -gewöhnlich oder häufig auftretende Fragen (avtor tarjimasini).

---

<sup>12</sup> Duden beten | Rechtschreibung, Bedeutung, Definition, Herkunft. URL: <https://www.duden.de/suchen/dudenonline/Frage>

*”Na, was passiert danach? – Xo ‘sh, innakeyin, nima bo ‘ldi?*

*Wie ist es kaputtgegangen? Hat man Haushalt den kein anderes Messer mehr außer jenem (Oybek Ostonov tarjimasi)*

*- Toza itingizning terisini shilayotgan edik, suyakka tegib sinib qoldi.*

*“Während wir mit der Klinge die Haut ihres Windhundes abgezogen, stieß sie dermaßen hart auf die Knochen das sie abbrach” (Oybek Ostonov tarjimasi)*

*Haut abziehen- terini shilmoqqa tarjimon shu birikmani berib o‘tgan, bizningcha, abziehen- organizmlarga nisbatan tortib, ozor berish ma’nosidagi frazemani qo‘llab qo‘yganligini guvohi bo‘lamiz, biroq aynan shu fe’l o‘rniga enthäuten ëku schinden fe’llari qo‘llansa, yaxshi bo‘lardi, chunki bu fe’llar somatizmlarga nisbatan shilib olish, sug‘urib olish ma’nosini bildiradi.*

*-Iyya? !-dedi boy -Tozining terisini mening dandon sopli pichog‘imda shilasanlarmi, o‘zing ayt-chi, nimaga shildilaring (Oybek Ostonov tarjimasi)?*

*”Was?!” Saribay schrie beinahe. ”Warum zum Teufel habt ihr die Haut des Hundes mit meinem Messer aus Elfenbein .....Warum habt ihr sein Fell abgezogen (Oybek Ostonov tarjimasi)”*

*Itning terisi- die Haut des Hundes to‘g‘ri berilgan. Messer aus Elfenbein-dondon sopli pichoq izohini qoldirib o‘tdik.*

*-Shoshilib qoldik-da, o‘lib qolgandan keyin, bekor ketmasin deb terisini shilib oldik.*

*“Alles geschah so schnell, und wir waren in großer Eile. Der Hund war gestorben, und wir beschlossen das Fell schnell abziehen, damit es nicht verdirbt.... (Oybek Ostonov tarjimasi) damit es nicht verdirbt- terisini shilmoq, bekor ketmasin- nicht verdirbt (aynib qolmoq) fe’lidan foydalangan, biroq bizningcha, verschwenden isrof bo‘lmoq fe’lini qo‘llaganda, tarjima yanayam mukammalroq bo‘lardi deb o‘ylaymiz.*

*-Nima qilib o‘ldi?– Wie ist er gestorben (Oybek Ostonov tarjimasi)*

*Harom o‘lgan otning go‘shidan ko‘p yeb qo‘ygan ekan, bo‘kib o‘ldi.*

*“Er überfraß sich an dem unkoscheren Fleisch eines Pferdekadavers (Oybek Ostonov tarjimasi) - tarjima to‘g‘ri berilan, bu ham tarjimomni ustamon ekanligini ko‘rsatib turibdi.*

*- Harom o‘lgan ot go‘shiti qayoqda ekan?*

*“Wo lag bei mir zu Hause ein Totes Pferd verdammt noch mal!” (Oybek Ostonov tarjimasi)*

Yuqorida keltirilgan asliy matn va ularning nemis tiliga o‘girilgan tarjimalarida tarjimon asosan adabiy tarjima uslubidan foydalangan holda tarjima qilgan. Bu tarjima uslubi badiiy asarlarni bir tildan boshqa tilga o‘girishda ishlatiladi va bu tarjima turi orqali asl matnning uslubiy xususiyatlarini saqlashga, asarning badiiy qiymatini o‘zgartirmasdan bir tilning madaniy kontekstidan boshqa tilning madaniy kontekstiga ko‘chirishga harakat qilinadi. Endi esa ushbu matnlar tarjimasini linguokulturologik tahlilini ham qilib chiqsak:

Odatda, *Innaykeyin* leksemasi o‘zbek tilida so‘roqni, ayniqsa *nima bo‘ldi?*, *qanday?* kabi savollarning o‘rnini bosuvchi so‘z hisoblanadi. Tarjima matnida *ima bo‘ldi?*, *qanday?* so‘roqlariga *Wie ist es kaputtgegangen? deb o‘girib*, so‘roqlar gaplar turini boshqacharoq o‘girgan deyish mumkin. Asliy matnda berilgan *toza*

so'zi nemis tilida *Greyhound* yoki *Whippet* so'zlari ma'nosida qo'llaniladi, biroq *toza* so'ziga nemis tilida *Windhund* bilan o'zgartirilgan, bu ikki tilning turli hayvonlarga oid atamalar farqi hamda madaniy bog'liqlikni ko'rsatgan deyish mumkin.

Asliy matndagi *Shoshilib qoldik-da* jumlasini o'zbek tilida xatti-harakatning shoshilinchligini ifodalaydi. Tarjimada *Alles geschah so schnell* deb tarjima qilinganligi nemis tilida vaqtning tezligi va shoshilinchlikni ifodalash uslubini hisobga olib o'girilganligini bildiradi.

Ma'lumot o'rnida yan qo'shimcha qilib shuni aytib o'tish joizki, o'zbek tilidagi matnlar o'zbek madaniyatining hayvonlarga nisbatan munosabatini ko'rsatadi. Tozining terisini shilishi, tozi ko'p yeb qo'yish kabi elementlar o'zbek madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Tarjimada bu elementlar nemis tilida saqlab qolingani, lekin ba'zi hollarda nemis madaniyatining o'ziga xos elementlari bilan o'zgartirilgan. Masalan, *dandon sopli pichoq* jumlasini nemis tilida *Messer aus Elfenbein* deb tarjima qilingan bo'lsada, bu nemis madaniyatida fil suyagi qimmatbaho material sifatida qabul qilinishini ko'rsatadi.

Yuqorida o'zbek tilida berilgan asliy matn va ularning nemis tilidagi tarjimasining linguokulturologik tahlil etish ushbu matnlarning milliy urf-odatlarining tarjimada aks etishi juda qiziqarli va muhim jihatlarni ochib beradi. Masalan, *tozi* leksemasi va uning nemis tiliga *Windhund* tarjimasi o'zbek tilida *tozi* so'zi faqat *Greyhound* yoki *Whippet* zotli itlarga nisbatan ishlatiladi. Bu turli zotlarga nisbatan o'ziga xos atash va uni ardoqlash o'zbek madaniyatida hayvonlarga bo'lgan munosabatni ko'rsatadi. Nemis tiliga o'girilgan *Windhund* tarjimasi bu xususiyatni saqlab qola olgan bo'lsada, nemis halqi madaniyatida bu zotga bo'lgan qarashlar biroz farqli bo'lishi mumkin.

Yana asliy matnda keltirilgan *Harom o'lgan otning go'shtidan ko'p yeb qo'ygan ekan, bo'kib o'ldi* jumlasini esa o'zbek halqi madaniyatida harom go'sht yemaslik qoida sifatida qabul qilinadi. Bu ibora O'zbek madaniyatidagi harom go'shtga nisbatan qarashlarni va bu qoidani buzganda nimalar bo'lishi mumkinligi haqidagi e'tiqodlarni ko'rsatadi.

